

QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING NORMATIV QIYMATINI HISOBLASH USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Turopov A'zam Kamolovich

Geoinnovatsiya markazi DUK 1-bosqich mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatini aniqlashning mavjud tartibi va uslubi, baholash ma'lumotlaridan foydalanish asosida qishloq xo'jaligi yerlarining ijara haqi va yer solig'ini to'lash tartibi o'rganilgan, yer solig'ini hisoblash dasturi va undagi kamchiliklari hamda yerlarning normativ qiymatini baholash uslubini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, yer resurslari, normativ qiymat, yer solig'i, ijara haqi, yerlarni baholash.

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatini aniqlashning mavjud tartibi va uslubi, baholash ma'lumotlaridan foydalanish asosida qishloq xo'jaligi yerlarining ijara haqi va yer solig'ini to'lash tartibi o'rganilgan, yer solig'ini hisoblash dasturi va undagi kamchiliklari hamda yerlarning normativ qiymatini baholash uslubini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, yer resurslari, normativ qiymat, yer solig'i, ijara haqi, yerlarni baholash.

Аннотация. В статье изучены действующий порядок и методика определения нормативной стоимости сельскохозяйственных земель, порядок уплаты арендной платы и земельного налога на основе использования данных оценки. Также проанализирована программа расчёта земельного налога и её недостатки, даны предложения и рекомендации по совершенствованию методики оценки нормативной стоимости земель.

Ключевые слова: сельское хозяйство, земельные ресурсы, нормативная стоимость, земельный налог, арендная плата, оценка земель.

Kirish. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va aholining turmush farovonligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni bevosita yerlarining unumdorligi bilan bog'liqdir. Bunday jarayonda qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan yerlarning sifati va unumdorligini o'rganish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi

Qishloq xo'jaligida yerlarning tabiiy va iqlim sharoitiga mos bo'lgan

ishlab chiqarishni joylashtirish orqali yerlardan samarali va unumli foydalanish, shuningdek qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda yerlarning normativ qiymatini ilmiy va uslubiy jihatdan asoslangan holda belgilash dolzarb ahamiyatga ega.

XIX-asrda yashagan rus olimi V.Dal o'z asarlarida "Baholash" jarayonining asl mazmunini izohlab, bu kasb egalarini baholovchilar narx yig'uvchilar deb yozib qoldirgan. XVIII-asrda Rossiya imperiyasi podsholigida

yer baholovchi shaxs, biror buyumni baholashdan avval “rostgo'ylik va xolislik asosida baholayman” deb qasam ichishgan.

Bugungi kunda fermer xo'jaligini rivojlantirish, uning ko'lamini takomillashtirish bo'yicha qator tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Fermer xo'jaligiga davlat tomonidan yer ajratib beriladi, undan daromad qilishi uchun mulk huquqi asosida nomiga o'tkazib beriladi. Fermer bir yil davomida yerdan foydalanganligi uchun soliq to'lashi kerak albatta. Yerlardan olinadigan foydaning ma'lum qismini tabiiyki davlatga soliq sifatida to'laydi. Ma'lumki, yerning normativ qiymatini hisoblash uchun yagona qaror qishloq xo'jaligi yer maydonlarining normativ qiymatini aniqlash ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi 235-son qarori bilan tasdiqlangan “Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida” nizomi ishlab chiqilgan va shu qaror asosida yer solig'i hisoblanadi va ijara haqi olinadi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan qaror bilan nafaqat yerning normativ qiymati balki yerdan foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilinishini ham amalga oshirishda yordam berishi kerak albatta. Afsuski ushbu qaror faqat yer solig'ini olishda qo'llanib kelinmoqda.

Tadqiqot usullar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi 235-son qarori bilan tasdiqlangan “Qishloq xo'jaligi

ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida” nizomda berilgan normativ qiymatni aniqlash usullari hamda taqqoslash, guruhlash va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. Respublika bo'yicha korxona, tashkilot, muassasa, fermer xo'jaligi va fuqarolar foydalanishdagi jami yerlar 44892,4 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4336,6 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,7 foizini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar esa 27148,5 jami foizning 60,48 % ni tashkil etadi.

Qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi.

Haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi.

Bu yer turlari ichidan bo'z yerlar haqida to'xtalib o'tsak;

Bo'z yerlar tarkibiga samarasiz foydalanish natijasida, sug'orish qoidalarining buzilishi va tuproq-meliorativ holatining yomonlashishi, eroziyaga ta'siri, kuchli sho'rlanishi, gipslanishi hamda yangi o'zlashtirilgan yerlar holatining yomonlashishi

oqibatida, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi (oborot)dan chiqib qolgan sug'oriladigan va lalmi ekin yerlar kiradi.

Bo'z yerlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi 2022-yil holatiga qo'yidagi jadvalda ko'rsatilgan.

1- jadval

Bo'z yerlarining miqdori
(ming gektar hisobida)

T/r	Respublika, viloyatlarning nomi	Jami bo'z yerlar	Shu jumladan:	
			Sug'oriladigan yerlar	Lalmi yerlar
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,2	14,2	-
2	Andijon viloyati	2,6	0,5	2,1
3	Buxoro viloyati	7	7	-
4	Jizzax viloyati	11,3	1,7	9,6
5	Qashqadaryo viloyati	21,9	4,6	17,3
6	Navoiy viloyati	6,8	6,7	0,1
7	Namangan viloyati	2,5	2,5	-
8	Samarqand viloyati	5,2	-	5,2
9	Surxondaryo viloyati	0,3	-	0,3
10	Sirdaryo viloyati	10,2	10,2	-
11	Toshkent viloyati	0,8	0,4	0,4
12	Xorazm viloyati	3,8	3,8	-
Jami		86,6	51,6	35

Sug'oriladigan mintaqadagi bo'z yerlar sug'oriladigan ekin yerlar chegaralarida kichik maydonlarga joylashgan, agar bunday yerlar sug'orish va kollektor shoxobchalari bilan ta'minlanib, tegishli meliorativ tadbirlar amalga oshirilsa, bu yerlarning holati qayta tiklanishi

hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi (oboroti)ga qayta kiritilishi mumkin.

Shu o'rinda bir xulosa bo'z yerlar 86,6 ming gektar maydonga yetib kelishi mana shu 2021-yilda amalga oshirildimi yoki bu holat yillar davomida oz-ozdan qo'shilib kelyaptimi, bu savolga javobni ushbu jadvaldan olamiz.

2-jadval

Bo'z yerlarning yillar kesimida shakllanishi

(ming gektar hisobida)

T/r	Yer turlari	2017 holatiga	2018 holatiga	2019 holatiga	2020 holatiga	2021 holatiga	2022 holatiga	2022-yil 2017-yil farqi +,-
1	Bo'z yerlar	79,9	80,8	80,7	83,7	83,6	86,6	6,7
2	Shu jumladan sug'oriladigani	46,8	47,8	47,7	48,7	48,6	51,6	4,8

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki bo'z yerlar yerga yaxshi ishlov berilmasligi, kerakli ozuqalarni vaqtida berib turmasa kelgusi yillarda bu raqamlar (6,7 ming gektar) oshib borishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi 235-son qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida" nizomining 24-bandida 1 gektar sug'oriladigan bo'z yerlarning normativ qiymati 0,1 koeffitsiyenti qo'llanilgan holda sug'oriladigan haydov yerlarning qiymati bo'yicha aniqlanadi deb yozib qo'yilgan. Ya'ni kim har qanday fermer xo'jaligi 1 yilda sug'oriladigan bo'z yerlar uchun 0,1 qiymatda hisoblanib soliq to'lashi belgilab o'tilgan. Bu holat ba'zi fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish qoidalariga amal qilishini sustlashtirib, yerdan faqat o'zining maqsadlari uchun qarashi va yerga o'tkazilishi kerak bo'lgan meliorativ tadbirlarni o'tkazmasdan qolinishiga sabab bo'lmoqda. Biz yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda yerdan samarali foydalanish qator takliflar ishlab chiqdik. Ya'ni yerdan foydalanuvchi bo'z yerlardan

foydalanmasdan uni ishdan chiqarishga olib kelsa 235-sonli qarorning 24-bandida keltirilgan 1 gektar sug'oriladigan bo'z yerlarning normativ qiymati 0,1 koeffitsiyenti qo'llanilgan holda emas, balki 0,3 koeffitsiyenti qo'llanilgan holda yerlarning qiymatini aniqlashini hamda bo'z yerlardan foydalailgan uchun, yangi yerlarni o'zlashtirish (yangi fermer xo'jalik tashkil etilib bo'z yerlardan foydalanishni tashkil etsa) uchun 1 gektar yer maydonga 0,1 koeffitsiyenti qo'llanilmasdan aksincha bo'z yerdan 1 yil foydalansa umuman soliq olmaslik, 2 yil foydalansa 0,50 koeffitsiyenti qo'llanilgan holda yerlarning qiymatini aniqlash usulini taklif qilmoqdamiz. Buning samarasi qanday bo'ladi va qanaqa oqibatlarga olib keladi: yerdan foydalanuvchilar ko'proq soliq to'lasa yerga ko'proq ishlov berib uni qishloq xo'jaligi yer turidan chiqishini oldini oladi va bu xol yerlarni holati buzilishini oldini olgan bo'ladi. Agarda yangi yerlarni o'zlashtirgan yerdan foydalanuvchilardan soliq olinishini kamaytirsak nima bo'ladi: yerdan foydalanuvchilar hamda yangi tashkil etilayotgan xo'jaliklar yerga ko'proq ishlov berishi, undan iloji boricha

ko'proq hosil olishga intilishlari ortadi. Fermer o'zi uchun mehnat qilishi ko'proq natijalarga olib keladi. Buning natijasida yerning unumdorligi oshadi, tuproqning ball boniteti oshishi kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi 235-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi bilan hamkorlik 2019-2020-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va tumanlardagi qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining qishloq xo'jaligi yerlarini normativ qiymatini aniqlash ishlari amalga oshirilgan.

Mazkur qarorning 3-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tuman (shahar)lar bo'yicha yuzaga kelgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarini yetishtirishning o'rtacha foyda normasi va qishloq xo'jaligi ekinlari yalpi hosili to'g'risidagi ma'lumotlarni har yilning 1-aprel sanasigacha "Davergeodezkadastr" qo'mitasi (hozirgi Kadastr agentligi)ga taqdim etilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bugungi kunda qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatini aniqlash ishlari Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi "O'zdaverloyiha" ilmiy-loyihalash instituti tomonidan bajarilib kelinmoqda.


Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra "O'zdaverloyiha" DILI dasturiy ta'minotiga kiritib, har bir qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari normativ qiymatini aniqlash" natijalari bo'yicha joriy yil iyun oyining birinchi o'n kunligida Moliya vazirligi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi)ga taqdim qilinishi ko'rsatib o'tilgan.

Monografik tadqiqotlar sifatida Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani Parda Sherboboyev massividagi fermer xo'jaliklarining me'yoriy qiymat bahosi hisobini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda P.Sherboboyev massivida qishloq xo'jaligi yo'nalishida jami 20 ta fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, shulardan 2 tasi bog'dorchilik-uzumchilik, 10 tasi paxta-g'allachilik, 6 tasi chorvachilik va 2 tasi boshqa yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda.

Normativ qiymat bahosi bo'yicha P.Sherboboyev massividagi Paxta-g'allachilikka ixtisoslashgan Mo'minobod-Baraka fermer xo'jaligining bir gektar yerning normativ bahosi 13487,3 ming so'mni tashkil etishi va fermer xo'jalik yer uchastkasining (121,8 gektar) yalpi normativ bahosi 1642717,5 ming so'm chiqishini ko'rishimiz mumkin.

Quyida fermer xo'jaligining bir gektar yerning me'yoriy bahosi va jami yer maydoniga hisoblangan me'yoriy bahosini aniqlash usuli bilan tanishamiz (1-rasm).

Qishloq xo'jalik ekin maydonlarining normativ-qiymatini aniqlash va yagona yer solig'ini hisoblash tartibi



1-rasm. Qishloq xo'jalik ekin maydonlarining normativ-qiymatini aniqlash va yagona yer solig'ini hisoblashning mavjud tartibi.

Bu jarayonni biz “Mo‘minobod Baraka” fermer xo‘jaligi misolida qo‘yidagi bosqichlardan iborat ekanligini ko‘rsatamiz:

1-bosqich, fermer xo‘jaligining normativ qiymatini topish uchun fermer xo‘jaligining o‘rtacha bonitet balli (76) ni bir tonna paxta qiymatiga (0,4) ko‘paytiramiz. Chiqqan javob sentner hisobida chiqadi (30,4) va biz uni tonnaga o‘tkazish uchun chiqqan javobni 10 qiymatga bo‘lamiz (3,04). Keyin chiqqan javobni bir tonna paxtani tan narxining qiymatiga (2.300.000) ko‘paytiramiz va natijani 0,661 koeffitsiyentga ko‘paytiramiz. Natijada bir gektar haydalma yerdan olinadigan

yalpi mahsulotning me‘yoriy bahosi (4621712 so‘m) kelib chiqadi va ushbu qiymatni qisqartirib olish uchun ming so‘m qiymatga bo‘lamiz (4621,7).[8]

2-bosqichda biz foyda me‘yorini aniqlaymiz. Buning uchun fermer xo‘jaligining o‘rtacha bonitet balini bir ball foyda me‘yori (0,3) qiymatiga ko‘paytiramiz va foyda me‘yori (22,8)% hisobida kelib chiqadi.

3-bosqichda me‘yoriy sof foydani topishimiz kerak bo‘ladi. Uning uchun bir gektar haydalma yerdan olinadigan yalpi mahsulotning me‘yoriy bahosiga (4621,7 ming so‘m) foyda me‘yoriidan chiqqan qiymatni (22,8) ko‘paytiramiz hamda umumiy ko‘rsatkichga nisbati

100 qiymatga bo'lamiz va me'yoriy sof daromad qiymati (1053,7 ming so'm) kelib chiqadi. Bu me'yoriy sof daromad qiymatining natijasi hisoblanadi.

4-bosqichda bank ssudasi (5%) va xo'jalik yuritish va ishlab chiqarish intensivligini darajasi bo'yicha koeffitsiyentlari (0,8) bizda bor edi.

5-bosqichda bir gektar yerning bazaviy me'yoriy bahosini topamiz. Buning uchun me'yoriy sof daromad (16859,2 ming so'm)ni xo'jalik yuritish va ishlab chiqarish intensivligini darajasi bo'yicha koeffitsiyentlari (0,8)ga ko'paytiramiz va chiqqan javobni 100 qiymatga ko'paytiramiz va jami qiymatni bank ssudasi (5) qiymatiga bo'lib yuboramiz. Natijada bir gektar yerning bazaviy me'yoriy bahosi (16859,2 ming so'm) kelib chiqadi.

6-bosqichda bizda massivning joylashganlik bahosi bo'yicha koeffitsiyenti (0,8) va mahalliy sharoiti bo'yicha koeffitsiyent qiymatlari (1) mavjud.

7-bosqichda bir gektar yerning me'yoriy bahosini topishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun bir gektar yerning bazaviy me'yoriy bahosidagi qiymat (13487,36 ming so'm)ni massivning joylashgan o'rni bo'yicha koeffitsiyenti (0,8) ga ko'paytiramiz hamda chiqqan javobni mahalliy sharoit bo'yicha koeffitsiyent (1) ga yo'li bilan bizga kerakli bo'lgan bir gektar yerning me'yoriy bahosini (13487,3 ming so'm) topamiz va shu qiymat natijasida yagona yer solig'i stavkalarini aniqlashda qo'llaymiz.

8-bosqichda yer uchastkasining yalpi me'yoriy bahosini aniqlashimiz kerak bo'ladi. Buning uchun bir gektar yerning me'yoriy bahosi (13487,3 ming so'm)ni fermer xo'jaligining umumiy yer maydoni (121,8 ga) ga ko'paytiramiz va natijada fermer xo'jaligining yalpi (umumiy) me'yoriy bahosi (1642717,5 ming so'm) kelib chiqadi. Ushbu jadvalda yuqoridagi hisob-kitob ishlaridan foydalanib fermer xo'jaligining normativ qiymatini aniqlaymiz.

Tadqiqot natijalar. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari normativ qiymatini aniqlash natijalarining" yakuniy ma'lumotlari asosida kelgusi kalendar yil uchun yer solig'i stavkasi miqdorini Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi ko'rsatib o'tilgan. Vazirlar Mahkamasi belgilab bergan miqdorni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliqlarni davlat byudjetiga undirilishi ko'zda tutilgan.

Ushbu o'rinda qishloq xo'jalik yerlari normativ qiymati ko'rsatkichlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish bo'yicha normativ qiymatni ishlab chiqarish dasturini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar berishni lozim deb topdik.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi 235-sonli qarorning asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari, bog'lar va tokzorlarning bir bonitet ballga nisbatan hisoblangan normativ

hosildorligi, ozuqa ekinlarining ozuqa birligida ifodalangan normativ unumdorligi va tuman dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yillik o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish bo'yicha har bir mahsulotlarning turiga qarab koeffitsient belgilab berishlari va umumiy tonna hajmida yillik summa narhlarini aniqlab berishni yanada takomillashtirib, unga yana boshqa mahsulotlar va yem-xashak o'simliklarini kiritish kerakligini aytib o'tish kerak. Sababi Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomning 2-ilovasi asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarini, bog'lar va tokzorlarning tuproqlarining bir bonitet balga nisbatan hisoblangan normativ hosildorligi jadvallarini misol tariqasida oladigan bo'lsak kunjut o'simligidan olinadigan soliq uchun alohida koeffitsiyent kiritilmagan. Sababi 235-sonli qarorning 2-ilovasida asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari, bog'lar va tokzorlarning tuproqlarining bir bonitet baliga nisbatan hisoblangan normativ hosildorligi deb yozib qo'yilgan. Oldingi yillarda asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini joylashtirishda asosan 2-ilovada keltirilgan mahsulotlar kiritilgan. Boshqa ekinlarning normativ hosildorligi boshqali don ekinlari bo'yicha hisoblangan

Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini

aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga 2-ilova.

Ya'ni fermer yetishtirgan mahsulot boshqa bo'lib, boshqa mahsulotning nisbatida soliq to'laydi va bu qandaydir ma'noda fermerlar mahsulotlarini to'g'ri hisob - kitob ishlarini amalga oshirishga biroz to'sqinlik qiladi.

Ushbu mahsulot hozirgi kunda talab ortib borishini inobatga olgan holda bu o'simlikni yetishtirgandan keyin uning o'ziga alohida koeffitsiyent bilan ishlash maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda kunjut o'simligi haqida qisqacha: Kunjut-kunjutdoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, moyli ekinlar turiga kiradi. Hozirgi kunda 19 turi ma'lum. Vatani - Afrika. O'rta Osiyoga Hindistondan olib kelingan. Dehqonchilikda bahori ekin bo'lgan bir yillik madaniy turi - Hindiston kunjuti Hindiston, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Afrika, Eron, O'rta Osiyoda va boshqa mamlakatlarda ekiladi.

Kunjut o'simligi moyi zaytun moyidan ham ustun turadi. Presslab olingan kunjut moyi iste'mol uchun, oziq-ovqat sanoatida, konserva va qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, tabobat, parfyumeriyada ishlatiladi.

Afrikada bargi ovqatga solib iste'mol qilinadi. Tozalangan va maydalangan urug'i yuqori navli holvalar (holvalar) tayyorlashda, non yopishda ishlatiladi. Kunjut kunjarasida

40% oqsil, 8% moy bo'lad, mollarga ozuqa sifatida beriladi.

Kunjut sur tuproqli, unumdor, dukkakli don ekinlardan bo'shagan yerlarda mo'l hosil beradi.

Navlari: O'zbekistonning hamma viloyatlaridagi tomorqa, dehqon va fermer xo'jaliklarida kunjutning Toshkent 122, Seraxs 470, Kubanets 55 navlari ekiladi.

3-jadval

Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari, bog'lar va tokzorlarning tuproqlarining bir bonitet baliga nisbatan hisoblangan normativ hosildorligi

Qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik daraxtlar	Tuproqning bir bonitet baliga nisbatan normativ hosildorligi, s/ga
Sug'oriladigan yerlarda	
G'o'za	0,4
Boshqoli don ekinlari	0,6
Tamaki	0,45
Sholi	0,7
Bir yillik o'tlar (yashil yem-hashak)	3,0
Sabzavotlar	3,0
Poliz mahsulotlari	2,7
O'tgan yillardagi beda	2,0
Don uchun makkajo'xori	0,75
Yem-xashakbop ildizmevali o'simliklar	9,0
Kartoshka	2,0
Bog'lar (o'rta hisobda)	0,6
Tokzorlar (o'rta hisobda)	0,8
Lalmi yerlarda	
Kuzgi bug'doy	0,25
Kuzgi arpa	0,20
Bahorgi no'xat	0,12

Ya'ni fermer yetishtirgan mahsulot boshqa bo'lib, boshqa mahsulotning nisbatida soliq to'laydi va bu qandaydir ma'noda fermerlar mahsulotlarini to'g'ri hisob - kitob ishlarini amalga oshirishga biroz to'sqinlik qiladi.

Ushbu mahsulot hozirgi kunda talab ortib borishini inobatga olgan holda bu o'simlikni yetishtirgandan keyin uning o'ziga alohida koeffitsiyent bilan ishlash maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda kunjut o'simligi haqida qisqacha: Kunjut- kunjutsoshlar

oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, moyli ekinlar turiga kiradi. Hozirgi kunda 19 turi ma'lum. Vatani - Afrika. O'rta Osiyoga Hindistondan olib kelingan. Dehqonchilikda bahori ekin bo'lgan bir yillik madaniy turi - Hindiston kunjuti Hindiston, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Afrika, Eron, O'rta Osiyoda va boshqa mamlakatlarda ekiladi.

Kunjut o'simligi moyi zaytun moyidan ham ustun turadi. Presslab olingan kunjut moyi iste'mol uchun, oziq-ovqat sanoatida, konserva va qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, tabobat, parfyumeriyada ishlatiladi.

Afrikada bargi ovqatga solib iste'mol qilinadi. Tozalangan va maydalangan urug'i yuqori navli holvalar (holvalar) tayyorlashda, non yopishda ishlatiladi. Kunjut kunjarasida 40% oqsil, 8% moy bo'ladi, mollarga ozuqa sifatida beriladi.

Kunjut sur tuproqli, unumdor, dukkakli don ekinlardan bo'shagan yerlarda mo'l hosil beradi.

Navlari: O'zbekistonning hamma viloyatlaridagi tomorqa, dehqon va fermer xo'jaliklarida kunjutning Toshkent 122, Seraxs 470, Kubanets 55 navlari ekiladi.

4-jadval

Kunjutning yillar hisobidagi ekilish davri

T/r	Yillar	Ming tonna
1	2000	2,2
2	2005	2,3
3	2010	3,9
4	2015	6,1
5	2018	9,6
6	2019	13,9
7	2020	12,8



Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Kunjut o'simligining qanchalik ahamiyati 2010 va 2020-yillar oralig'ida 10,6 ming tonnaga oshgan va biz bu o'simlikni boshqa ekinlar sifatida normativ hosildorligini hisoblab kelmoqdamiz.

Keyingi taklif esa yerlarni baholash ishlarini amalga oshirish

dasturini yanada takomillashtirish maqsadida bir qator takliflar ishlab chiqildi. **Qishloq xo'jaligi vazirligi qoshidagi** "O'zdaverloyiha" davlat ilmiy loyihalash instituti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 235-son qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tartibi ta'minlash uchun kerakli ma'lumotlarni

olish uchun yozma xat bilan chiqishi va kerakli ma'lumotlarni kutishi kerak. Boshqa tashkilotlar ham o'z navbatida normativ qiymatni ishlab chiqilish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etgandan so'ng ularni "O'zdarerloyiha" DILI xodimlarni o'zlarining dasturlariga birma-bir kiritishlari kerak bo'ladi. Ushbu jarayonda inson omili ishtirokidagi har qanday xato-kamchiliklar kelib chiqishi mumkin. "Tuproq tarkibi va repozitoriysi, sifati tahlil markazi" davlat unitar korxonasi o'zining tuproq tarkibi bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi va xodimlar har bir yerdan foydalanuvchilarning umumiy yerining ball bonitetining o'rtachasi olina. Bunda ba'zi yerlarning ball boniteti yuqori va ba'zi birlari past bo'lishi mumkin. Bu esa aniq ball bonitetini bermaydi va to'g'ri me'yoriy qiymatni hisoblashga qarshilik qiladi.

Yuqoridagi aytib o'tilgan vaqtdan yutqazish va xatoliklarni bartaraf etish maqsadida yangicha dasturni takomillashtirish kerak. Buning uchun biz quyidagicha taklif kiritishni lozim topdik.

Normativ qiymatni ishlab chiqish uchun yagona dasturni ishlab chiqish kerak hamda har bir vazirlik va qo'mita tomonidan kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joyning o'zida (har bir tashkilot hech qanday qog'ozlarsiz) dasturga bemalol va o'z vaqtida kiritishni yo'lga qo'yish ya'ni Davlat statistik agentligi o'zining yillik statistik ma'lumotlarini, Iqtisodiyot va

moliya vazirligi iqtisodiy ma'lumotlarni, "Tuproq tarkibi va repozitoriysi, sifati tahlil markazi" davlat unitar korxonasi o'zining tuproq bo'yicha ma'lumotlarni har bir yerdan foydalanuvchining konturlar va alohida maydonlari kesimida o'zi uchun birlashtirilgan yacheykaga kiritadi va boshqa bo'limning ma'lumotlariga o'zgartirish kiritolmaydigan tarzda jami natijalarni onlayn tarzda ko'rib turish imkonini yaratadi.


Ushbu onlayn dastur asosida to'g'ridan - to'g'ri Vazirlar Mahkamasining onlayn dasturida ko'rinib turishi va ma'lumotlarni hisoblash ishlarini shaffoflik darajasi yuqori bo'lishiga erishamiz va boshqarmalar orasidagi qog'ozbozlikni oldini olishga anchagina yordam ham beradi. Ushbu dasturni onlayn platformaga chiqarsak faqat fermer xo'jaliklari o'zining STIR raqamlarini kiritgan holda o'zlarining yer maydonlari uchun to'laydigan soliq miqdorlarini istagan vaqtda istagan joyda ko'rib turishlari hamda to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin bo'lar edi. Bu ma'lumotlar asosida normativ qiymatni hisoblash uchun mas'ul xodimlarning ishi sifatli va ijobiy bo'ladi. Yuqoridagi holatlardan ko'rinib turibdiki yerdan foydalanuvchilar qayday mahsulotlar yetishtirganliklari va qancha miqdorda to'lov amalga oshirganliklarini shaffoflik tizimida ochiq ko'rib turishlari mumkin.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish va iqtisodiy jihatdan tabaqalashishini

ilmiy va uslubiy tomondan asoslash zarurati oshib bormoqda. Bu esa, ushbu xo'jaliklarni ko'p tarmoqli korxonalarga aylantirishga xizmat qiladigan adolatli soliq solish, investitsiya, ishlab chiqarish samaradorligini rag'batlantirish, yerdan foydalanuvchining manfaatdorligi kuchayishi, shuningdek innovatsion rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Ayni shuning uchun ham, bugungi kundagidek qishloq xo'jaligi yerlarining "me'yoriy qiymati"ni baholash natijalaridan faqat yer solig'i tizimini shakllantirishda foydalanmaslik kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qaror qabul qilinib, bu uchun bir nechta davlat boshqaruv tashkilotlari ishlab chiqqan normativ

qiymatdan biz faqatgina yagona yer solig'ini undirishda foydalanib kelmoqdamiz. Shu jarayondan yanada kengroq foydalanish maqsadida yerlarning me'yoriy bahosidan kengroq foydalanish mumkinligini tahlil qildik va uni iloji boricha kengroq yoritish maqsadida chizma ko'rinishida ifodaladik. Shu o'rinda normativ qiymat aniqlangandan keyin uni yana bir qator yo'nalishlarda qo'llashni takomillashtirish bo'yicha takliflar mavjud. Ushbu yo'nalish orqali yerning topilgan normativ qiymatini yanada kerakli yo'naltirish bilan yerning qadrini oshirishimiz mumkin va fermer ishlab chiqarish xo'jaliklarining foydalanishdagi ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishamiz. Ushbu ko'rsatkichlarni 2-chizmada asoslab ko'rsatib berishga harakat qilindi.



2-rasm. Qishloq xo'jaligi yerlari "Me'yoriy qiymati" ko'rsatkichlarining ko'pfunksionalligini ta'minlash usullari

2-rasmdan ko'rinib turibdiki agar yerni ko'pmaqsadli va ko'pfunksional resurs sifatida qaraydigan bo'lsak, yerning "me'yoriy qiymati" ko'rsatkichlaridan yer ijarasi huquqining qiymatini aniqlash va ushbu qiymatni muayyan cheklovlar asosida bank kreditini olish uchun ta'minot sifatida berish, yer ijarasi huquqining qiymatini fermer xo'jaligi balansiga kiritish orqali fermer xo'jaligining ustav kapitalini shakllantirish, qishloq xo'jaligi yerlarini boshqa noqishloq xo'jaligi maqsadlari uchun ajratishda kompensatsiya miqdorini iqtisodiy asoslash, qishloq xo'jaligida jarima stavkalarini o'rnatish, qishloq xo'jaligida sug'urta ishini tashkil qilish kabi uslublarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin va lozim.

Yuqoridagi keltirilgan jarayondan ko'rinib turibdiki yerning normativ qiymatidan faqat undan olinadigan yer solig'idan tashqari boshqa maqsadlar uchun ham foydalanish mumkinligini, uni yanada takomillashtirish mumkinligini e'tirof etish mumkin. Yerdan olinadigan sof daromadni to'g'ri hisoblab to'g'ri yo'naltirsak fermer

xo'jaligi ham davlat ham manfaatdor bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Ushbu maqolada keltirib o'tilgan vazifalarni bajarishdan ko'zlangan asosiy maqsad qishloq xo'jalik yerlarining bir gektar yer maydonidan olinadigan yer solig'ini hisoblab chiqish va uning yo'llarini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Yerlarning normativ qiymati ishlab chiqilgandan keyin uni faqat yer solig'i uchun emas, balki normativ qiymat ko'rsatkichlaridan yer ijarasi huquqining qiymatini aniqlash va ushbu qiymatni muayyan cheklovlar asosida bank kreditini olish uchun ta'minot sifatida berish, yer ijarasi huquqining qiymatini fermer xo'jaligi balansiga kiritish orqali fermer xo'jaligining ustav kapitalini shakllantirish, qishloq xo'jaligi yerlarini boshqa noqishloq xo'jaligi maqsadlari uchun ajratishda kompensatsiya miqdorini iqtisodiy asoslash, qishloq xo'jaligida jarima stavkalarini o'rnatish, qishloq xo'jaligida sug'urta ishini tashkil qilishda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. T: O'zbekiston, 1998.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 235-sonli qarori, T.: O'zbekiston, 2014.
3. Xujaqulov U.B va Ergashev X.N. "O'zdaverloyiha" DILI mutaxassislari ma'ruzalari. 2017.
4. M.I.Nuretdinova. V.I.Bogolovskiy, "O'zbekiston zamini" Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. 2021/4.

5. Altiyev A.S. *“Yer resurslaridan foydalanishni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. Dissertatsiya, Avtoreferat” - T - 2018*
6. *O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Ochiq ma‘lumotlari.*
7. *O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi qoshidagi “O‘zdaverloyiha” DILI ma‘lumotlari*
8. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 709-sonli qarori.*
9. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-15-sonli.*
11. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-204-sonli qarori.*
12. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5006-sonli qarori.*
13. *Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 543-sonli qarori.*
14. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5742-sonli.*
15. *Q.R.Rahmonov “Yer monitoring asoslari” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2008.*
16. *Yerdan foydalanish iqtisodiyoti. Altiyev A.S. Toshkent-2019-yil.*
17. *Xashimjonov M. «Экономическая оценка орошаемых земель» Dissertatsiya. k.e.n. 1966, Str. 113.*
18. *Muxtorov O‘B. “Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi. T., 2021. 43-b*
19. *Bitiruv malakaviy ishi A.Turopov. Toshkent 2019.*
20. *“O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘g‘risida”gi Milliy hisobot (2018-2022-yil) va O‘zbekiston Respublikasining yer fondi.*
21. *“Ko‘p yillik daraxtzorlar egallagan qishloq xo‘jalik yerlarining me‘yoriy qiymatini baholash uslubini takomillashtirish” mavzusidagi Magistirlilik dissertatsiyasi A.Turopov. Toshkent 2023.*